

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Choriyev Hamid Hasan o‘g‘li
Qumqo‘rg‘on tumani MMTBga
qarashli 75-maktab psixologi.
choriyevhamid36@gmail.com*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, rivojlantirishning o‘ziga xos yo‘llari, interfaol usullari xususida, shuningdek bolalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari qanchalik yaxshi rivojlanayotganligini aniqlashning bir necha usullari haqida ma‘lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, tanqid, qobiliyat, boshlang‘ich sinf, metod va usullar, vosita va motivlar.

Hozirgi kunning talabi barkamol va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash bo‘lib, ta‘lim-tarbiya jarayonida bilim berishni takomillashtirish, o‘quvchilar bilan ishlashning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqish va noan‘anaviylikka intilishni taqazo etadi. Shunga ko‘ra, kichik yoshdagi o‘quvchilarni fikrlash, izlanish va aniq maqsad sari intilib ongli ravishda bilim olish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ta‘lim va tarbiya berishda metodlarning xilma-xil bo‘lishini talab etadi. Ana shunday yangi texnologiyalardan biri o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirishdir.

Tanqid (kritika (lot)-hukm qilish mahorati) – inson faoliyatining biror sohasiga aloqador hodisani baholash, analiz qilish. U xatolarni topish va muhokama qilishdan iboratdir. Tanqidiy fikrlash – narsalar va hodisalarni analiz qilib asosli xulosalar chiqarish maqsadidagi mulohazalar tizimi bo‘lib, u tanqidiy baholash xarakteriga ega. Ya‘ni, u tanqidga tayangan analitik fikrlashdir. Demak, tanqidiy fikrlash maqbul yechimni topishning yaxshi usullaridan biri ekankigini ko‘rishimiz mumkin. O‘quvchilarni chuqurroq izlanishga va savollarga yuqori saviyada javob berishga undash o‘ziga yarasha murakkab jarayon hisoblanadi. Ilg‘or xorijiy mamlakatkar tajribalarini o‘rganar ekanmiz, o‘sib kelayotgan avlodda tanqidiy fikrlashni shakllantirish ta‘lim tizimidagi muhim qadamlardan biri ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ma‘lumki, mavjud ilmiy adabiyotlarda o‘quvchining bilimdonligi, uning mustaqil mushohada qilish ko‘nikmalari ko‘pincha “aql”, “aqllilik”, “ilmga chanqoqlik” tushunchalari bilan birga ishlatiladi. Ham pedagogik, ham psixologik jihatdan ushbu tushunchalar orasida muayyan farqlar mavjud. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “aql” tushunchasi “bilimdonlik” kabi nisbatan kengroq tushuncha

ekanligini ta'kidlab, uning bir qator daraja va sifatini ajratib bergan edi. Ushbu sifatlarning bir qismi bilimdonlikka ham tegishlidir.

J.Hasanboyev, X.Sariboyev, G.Niyozov, O.Hasanboyeva, M.Usmonboyevaning ta'kidlashlaricha, kichik maktab yoshidan o'tgan bolalar (o'smirlik davri 11-12-yosh)da ham o'qish muhim o'rin tutadi, ammo talablarning oshishi ayrim holatlarda fanlarni o'zlashtirishda "pastlashish" holatini keltirib chiqaradi. Demak, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogik-psixologik uzviylik va uzluksizlikni inobatga olish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining doimiy diqqat markazida turgan vazifa bo'lishi lozim.

Shu o'rinda Atabek Nazarovning quyidagi fikrlarini keltirmoqchiman. Maktablarda o'quvchilar darsliklarda berilayotgan ma'lumotlarni yodlashlari kerak emas, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishimiz kerak. Bu haqda Atabek Nazarov Global haftaligi doirasida ta'kidladi. U, „ Biz bolalarni birinchi sinfdan“, „ Nima uchun?“ degan savolni berishga o'qitmaymiz, biz tanqidiy fikrlashga o'gatmaymiz. Hozirda biz xorijlik hamkorlarning bu yo'nalishdagi tajribalarini o'rganish va bu tajribani bizning o'qituvchilarimiz uchun moslashtirish bo'yicha ish olib boryapmiz. O'qitish metodologiyasi bolalarni mustaqil ma'lumot va bilim olishga o'rgatishi kerak. Agar biz bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatsak, internet davrida ular savollarga o'zlari javob olishlari mumkin“, - deydi Atabek Nazarov Xalq ta'limi tizimi nafaqat fundamental va gumanitar fanlardan bilim berishi va oliy o'quv yurtlariga tayyorlashi, shuningdek birinchi o'rinda yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlanishi hamda mehnat va tadbirkorlik faoliyati uchun kerakli ko'nikmalari ham berish kerak.

«Fikrlash»-biror muammo haqida muayyan bir xulosaga kelish maqsadida mulohaza yuritmoq yoki o'ylamoqdan iborat bo'lgan psixologik jarayondir. Bolalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalari qanchalik yaxshi rivojlanayotganini aniqlashning yana bir usuli – savol-javob o'tkazish. Bolaga yakka holatda berilgan savoldan kutilgan natija har xil bo'lishi mumkin. Ba'zida u bir xil fikrda qolishi yoki vaqt o'tishi bilan fikrini o'zgartirishi mumkin. O'quv mashg'ulotlarida tanqidiy fikrlashga yo'naltiruvchi savollarni bosqichma-bosqich ko'paytirib borish samarali natija beradi. Zamonaviy psixologiyada ushbu konsepsiyaning bir nechta talqini bor, lekin umumiy ma'nosi quyidagicha: Tanqidiy fikrlash – ma'lumot olish va o'z munosabatini shakllantirishdan boshlanadigan murakkab fikrlash va shaxsiy qaror qabul qilish jarayonidir. Bu yangi savollar qo'yish, o'z fikrini himoya qilish uchun dalil topish, tahlil etish va xulosa chiqarish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlay oladigan bola har doim o'z nuqtai nazarini isbotlay oladi. Suhbatdoshining fikriga rozi yoki rozi emasligini tushuntirishga qodir bo'ladi. Shuningdek, bizga Suqroti hakimdan tanqidiy fikrlash ham meros qolgan. U o'z mulohazalarida nima noto'g'riligini ko'rsatishga uringan. «Agar sho'rvaning ko'pigi olib tashlansa u toza bo'ladi» qabilida ish tutgan. Boshqacha aytganda barcha noto'g'rilar olib tashlansa to'g'ri, ya'ni haqiqat qoladi deb hisoblagan. Lekin ko'pik

bilan birga yana allaqancha «mahsulotlar» tashlanayotganligiga e'tibor bermagan. Suqrot yangi g'oyani taklif qilishdan ko'ra nima «yomonligini» ko'rsatishni muhim deb bilgan.

Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'sib kelayotgan o'quvchiyoshlarimizda ham davlatimiz rahbari aytganlaridek, tanqidiy tahlilni yoshligidan o'rgatib boradigan bo'lsak, biz o'ylaymizki, ushbu o'quvchi-yoshlar kelajakda yurtimizning yetuk kadrlari bo'lib yetishadi.

Mutaxassislarimiz tomonidan «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun bolalarni qanday tayyorlash kerak, aniq bir yo'nalish bormi, degan savolni Cambridge Assessment vakillariga berilgan edi. Bu yo'nalishda aniq bir mana bu yo'nalishda ketadigan bo'lsangiz, maqsadga erishasiz, degan javob olinmagan edi. Ya'ni, imtihon kuni bolaning qanday bilimi bo'lsa, muammoni qanday yechadi, tanqidiy fikrlashga qanday qaraydi, shu narsa tekshiriladi», – deb javob olingan. Psixologlar fikrlashning ikki yo'li borligini ta'kidlaydilar: Dunyoni yanada mazmunli qilish imkonini beruvchi barcha ma'lumotlarni o'zlashtirish, faktlarni to'plash. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimi o'quvchilarni darsda yoki darslikdan olingan ma'lumotlarni yodlashga majbur qiladigan fikrlash turidan foydalangan. Ushbu fikrlash tarzidagi muammo shundaki, muallif bildirgan mulohazalar sinovdan o'tkazilmasdan avtomatik ravishda oluvchining miyasiga o'tkaziladi. Olingan ma'lumotlar va bildirilgan dalillar aloqadorligini baholash. Bunday fikrlash tarzi so'nggi o'n yilliklarda ma'lumotlar keskin ko'payganidan keyin ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi. Shuning uchun zamonaviy dunyoda tanqidiy fikrlash qobiliyati muhim deb hisoblanadi. Ularga ega bo'lgan shaxs:

- g'oyalar va faktlar o'rtasidagi sabab va aloqadorlikni tushuna oladi;
- muayyan g'oyalar yoki dalillarning ahamiyatini tushuna oladi;
- o'z nuqtai nazaridan farq qiladigan nuqtai nazarlarni baholay oladi, shuningdek, o'z dalillarini keltira oladi;
- jarayonda nafaqat boshqa shaxslarning, balki o'zining mulohazalaridagi nomuvofiqliklarni ham aniqlay oladi;
- paydo bo'lgan muammolarni izchil hal qilishga qodir bo'ladi.

Ta'lim jarayoni o'quvchilar tomonidan tanlangan turli yo'llarga moslashtirilib, takomillashtirilib borilgandagina ularda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga zamin yaratiladi. Ta'lim jarayoni o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga zamin yaratish uchun ko'proq o'qish darslari va unda ikki haftada bir o'tiladigan sinfdan tashqari o'qish darslarining roli benihoya kattadir. STO'ning maqsadi – o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan, ongli kitobxonni tarbiyalashdir. Maktablarda 1959 yildan boshlab maxsus STO' darslari tashkil etilgan. Sinfdan

tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilarning tasavvur va tafakkurlarini, og‘zaki va yozma nutqi, ifodali o‘qish malakalari, lug‘at boyligi rivojlantiriladi. O‘quvchi har bir yangi asar bilan tanishish jarayonida, uni mazmun-mohiyatini tushunishi uchun nutqi ravon bo‘lishi, ifodali o‘qishi, nutq texnikasini egallagan bo‘lishi zarur.

XULOSA

Fikrimcha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli ta‘lim usullaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ongiga yangiliklarni singdirish orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptirish real pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirishni talab qiladi. Bu jarayon turli ta‘lim-tarbiya konsepsiyalari, nazariyalari yordamida loyihalashtirilib, ta‘lim tizimi muassasalariga tatbiq etiladi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashlarini shakllantirishda ularning obyektiv va hissiy bilish imkoniyatlarini rivojlantirish lozim. Buning uchun didaktik topshiriqlar majmui, maxsus metodikalar, o‘quvchilarga pedagogik ta‘sir ko‘rsatish mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. Yuqoridagi ta‘kidlardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo‘yicha maxsus tizimli ishlarga ehtiyoj mavjud.

2. Tanqidiy fikrlash – o‘quv auditoriyasidagi ruhiyatni o‘zgartira oladigan strategiyalar majmuidir, ya‘ni mashg‘ulot o‘qituvchi va talabalarning ijodxonasiga aylanadi. Bunday jarayonda o‘quvchilar izlanishlar, o‘rganishlar natijasida manbalardan unumli foydalanish orqali mustaqil fikrlash va mustaqil tafakkur yuritishni o‘zlashtira oladilar.

Tanqidiy fikrlash faol jarayon hisoblanib, bunda o‘quvchilarda ilmiy bilim olish bilan birga fikrlash jarayonida o‘ziga ishonch ortadi, o‘z fikri va g‘oyalarining qadrini tushunadi, o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi, do‘stlari va o‘qituvchi bilan fikr almashishni o‘rganadi hamda mas‘uliyatliligi oshib, o‘z g‘alar fikrini tinglay olish ko‘nikmasi shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. 2017 yil 14 yanvar
2. Pol, R. V., Elder, L. Bartell, T. (1997). Kaliforniya o‘qituvchisini tanqidiy fikrlash bo‘yicha o‘qitishga tayyorlash: Tadqiqot natijalari va siyosat bo‘yicha tavsiyalar. O‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha Kaliforniya komissiyasi Sakramento: Kaliforniya.

3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. III. – Toshkent: Fan, 1984. – b. 201.
4. Xodjayeva F.O. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va uning muhim jihatlari. / ”Zamonaviy ta’lim” ilmiy-amaliy ommabop jurnali, 2017-yil, № 6, 43-47 b
5. Xalqaro ochiq jamiyati institutining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» dasturi. – T.,2002
6. WWW.Ziy.uz

